

**HUDUDLARDA XORIJUY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNI
RIVOJLANTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI
BARTARAF ETISH YO'LLARI**

Hakimova Yulduz Xolboy qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hududlarda xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi bilan bog'liq ko'rsatkichlar, qaysi soha va tarmoqlar so'nggi yillarda ustuvorlikka ega ekanli haqidagi ma'lumotlar, jarayondagi muammolar va mamlakatimiz miqiyosida ularni bartaraf etishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilingan va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, kafolatlanmagan xorijiy kreditlar, investitsiya muhiti, investorlar huquqi, investitsion va tashqi aloqalar.

Hududlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilishdagi asosiy muammolar – qulay investitsiya muhitining yo'qligi, xususiy mulk huquqlarini tartibga solish va himoya qilish sohasining nomukammalligi bo'lib turibdi. Amaldagi hududlar miqiyosida investitsiya tendensiyalarining shunday davom etishi iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishishni sekinlashtirishi mumkin. Bu holatni o'tgan yillardagi investitsion holatni tahlili orqali yaqqol ko'rsatishimiz mumkin. Xususan, 2020 yil yakuniga ko'ra, asosiy kapitalga qo'yilgan investitsiyalar hajmi real qiymatida 2019 yilga nisbatan 8,2 foizga kamaydi va 202 trln so'mni tashkil qildi. Markazlashtirilgan manbaalardan moliyalashtiriladigan investitsiyalar hajmi 34,9 foizga kamayib, 39,3 trln so'mni tashkil etdi. Shuningdek, byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan investitsiyalar 33,6 foizga, O'TTJ mablag'lari 75,7 foizga, hukumat tomonidan ta'minlangan xorijiy investitsiyalar va kreditlar 28 foizga kamaygan [7]. 2020 yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 32,7 foizga (kafolatlanmagan xorijiy kreditlarni inobatga olmagan holda) kamayib, 2,9 mldr dollar (dollar ekvivalentida pasayish 33,8 foizga yetdi) tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida jami 229,3 trln. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 136,6% ni tashkil etdi. Asosiy kapitalga investitsiyalarning tarkibida 75,6% yoki 173,3 trln. so'm investitsiyalar jalg etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 24,4% yoki 56,0 trln. so'm moliyalashtirildi. Shuningdek, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 24,5 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 204,8 trln. so'm investitsiyalar o'zlashtirildi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar va o'sish sur'atlari tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobiga to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 307,2% ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lar ihisobidan moliyalashtirilgan


asosiy kapitalga investitsiyalar – 42,0 trln. so‘m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 18,3%ini tashkil etdi. Aholi mablag‘lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 6,1%i yoki 14,0 trln. so‘mi o‘zlashtirildi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 66,8 trln. so‘mni tashkil etdi va jami investitsiyalardagi ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 2,0% punktga ko‘payib 29,1%ni tashkil etdi. Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hisobidan 5,7 trln. so‘m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 2,5%ini tashkil etdi), O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 13,6 trln. so‘m (5,9%), kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 76,3 trln. so‘m (33,3%), Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi 1,8 trln. so‘m (0,8%), Respublika budjeti 8,3 trln. so‘m (3,6%), Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi tomonidan 0,8 trln. so‘m (0,4%) miqdorida asosiy kapitalga inestitsiyalar o‘zlashtirildi.

Investitsiyalarni tashkil etish, ularni moliyalashtirish, xorijiy investitsiyalarning kirib kelishida paydo bo‘layotgan to‘siallar, investitsion muhitni yaxshilashda yo‘l qo‘yilayotgan xato va kamchiliklarni ko‘pgina iqtisodchi olimlar o‘rganishgan. Jumladan, Haydarov N.[3], Karlibayeva R.H.[4], G‘ozibekov D.G.[5], Золотогоров Б.Г.[6] lar o‘z ilmiy ishlarida chuqur o‘rganishgan.

Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar quyidagi tarmoqlarda investitsiya loyihamini amalga oshirish hisobiga 2019 yilning shu davriga nisbatan 1,6 barobardan ziyod (2,4 mlrd dollardan 3,5 mlrd dollargacha) o‘sdi, jumladan:

- NKMK – 636,5 mln dollar;
- “O‘zbekneftgaz” AJ – 154,8 mln dollar (“Sho‘rtan GKM” MCHJ – ishlab chiqarish quvvatini oshirish – 122,7 mln dollar);
- “O‘zeltexsanoat” AJ – 101,8 mln dollar (maishiy muzlatgichlar ishlab chiqarish – 48 mln dollar);
- ATKR vazirligi – 89,4 mln dollar (keng polosalı telekommunikatsiya tarmog‘ini rivojlantirish – 35,5 mln dollar);
- “O‘zqurilishmateriallari” AJ – 91 mln dollar (1-rasm).

KAFOLATLANMAGAN XORIJIY KREDITLAR HISOBIGA AMALGA OSHIRILGAN INVESTITSION LOYIHALAR



1-rasm. 2020 yilda kafolatlanmagan xorijiy kreditlar hisobiga amalga oshirilgan investitsion loyihalar [8]

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning 22,1 foizi tabiiy gaz ishlab chiqarish sohasidagi loyihalarni amalga oshirishga, 22,5 foizi boshqa metal bo‘lmagan mineral mahsulotlarni ishlab chiqarish, 9,3 foizi qurilish ishlariga yo‘naltirilgan. Bundan tashqari, eksport salohiyati yuqori bo‘lgan – mashinasozlik, elekrotexnika, metallurgiya, kimyo va farmaseftika tarmoqlarida asosiy kapitalni shakllantirish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning darajasi pastligicha qolmoqda.

Asosiy kapitalga investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi, chunki ular ish o‘rinlarini yaratishga, infratuzilmani modernizatsiya qilishga va mamlakat raqobatbardoshligini oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. 2024-yilda O‘zbekiston Respublikasi kapitalni jalb qilishda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdi. Bu o‘tgan yilga nisbatan investitsiyalarning 127,6% ga oshganida namoyon bo‘ldi. Jami o‘zlashtirilgan mablag‘lar hajmi 493,7 trillion so‘mni, ya’ni o‘rtacha 12 651,54 so‘m/USD kursida 39,03 milliard AQSh dollarini tashkil etdi.

So‘nggi besh yilda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi deyarli 2,3 barobar oshdi, bu esa iqtisodiy siyosatdagi muhim o‘zgarishlar va investitsion muhitni yaxshilash bo‘yicha sa‘y-harakatlarning samarasi hisoblanadi. Agar 2020-yilda investitsiyalar hajmi 210,2 trillion so‘m ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 493,7 trillion so‘m ga yetdi. O‘sish sur’atlari izchil oshib borgan: 2021-yilda 102,9%, 2024-yilda esa 127,6% ni tashkil etdi.

Asosiy omillar:

- ⊕ Yirik infratuzilma loyihalarining amalga oshirilishi;
- ⊕ Xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish;
- ⊕ Sanoatni modernizatsiya qilish va raqamlashtirish dasturlari;
- ⊕ Xususiy tadbirkorlik uchun sharoitlarning yaxshilanishi.

Hududlarga xorijiy investitsiyalarning kirib kelmayotganligi yoki past ko‘rsatkichlarda jalb qilinayotganligi joylarda va sohalarda qulay investitsiya muhitini yaratilmaganligi, xususan raqobat muhiti, xususiy mulk daxlsizligi, moliya bozorlari, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasida tizimli muammolarning mavjudligidan dalolat beradi. Ta’kidlash joizki, investitsiyalar sohasidagi mavjud muammolarning davom etishi 2025 va 2026 yillarda iqtisodiy o‘sish sur’atlari 6,6 va 6,7 foizga erishishga tahdid solishi mumkin, bu esa iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalar hajmini sezilarli darajada oshirishga qaratilgan investitsiya muhitini yaxshilash bo‘yicha amaliy choralarни va ularning samaradorligini oshirishni talab qiladi. Ta’kidlash lozimki, to‘g‘ridan – to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning yuqori texnologiyali va inson kapitaliga faol yo‘naltirilmasligi mamlakatda yuqori darajadagi inklyuziv o‘sishga erishish va kambag‘allik darajasini qisqartirish kabi maqsadlarga erishish jarayonini xavf ostiga qo‘ymoqda. Investitsiya muhitini yaxshilash sohasida asosiy qadam xususiy va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha hududlarda shartsharoit yaratishga qaratilgan sa‘y- harakatlar orqali to‘liq va samarali institutsional shakllantirish bo‘lishi lozim. Xorijiy investitsiyalami jalb kilishning hududiy tarkibida notekislik saqlanib qolmokda. Ayni paytda investitsion muhit borasida hududlardagi asosiy muammolaming mavjudligi investitsiyalash

imkoniyatlari cheklanishi, va samaradorligi pasayishiga sabab bo'Tmoqda, chunki investitsion muhitdagi moliyaviy muammolaming hal etilmaganligi ayrim hududlami oqsoq hududlar qatoriga tushishiga sabab bo'ladi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi investitsion loyihalarni, ularning barcha hujjatlari, texnik iqtisodiy asosini sifatli va talab darajasida ishlab chiqaruvchi professional loyiha injiniring kompaniyalarining sanoqli ekanligi va yaxshi rivojlanmaganligi, ularning malakali kadrlar bilan ta'minlanmaganligi ham jiddiy muammo bo'lib turibdi. Ushbu kompaniyalar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar talab darajasida emas. Ular xorijiy moliyaviy institutlar shartlariga mos kelmaydi, ularning ekspertizada loyihaning asoslanmagan tomonlari-kamchiliklari ko'zga tashlanib qolmoqda. Bu loyiha hujjatlarining asosli ravishda tayyorlanmaganligi, hisob- kitoblarda noaniqliklar mavjudligi bilan izohlanmoqda. Xorijiy investorlar mablag'ları bu kichik va o'rta biznes sub'ektlariga beriladigan beg'araz insonparvarlik yordami emas. Shuning uchun har bir tadbirkor loyihaning moliyaviy rejasini tuzishda xorijiy investor o'mida o'zini his qilishi va shunga yarasha mablag'lar harakati prognozini to'g'ri hisoblab chiqishi zarur. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, xorijiy investor ham mahalliy hamkorga o'xshab, ma'lum vaqt dan so'ng foyda olish maqsadida mablag'larini ma'lum bir sohaga joylashtiradi. Agar u investitsiya rentabelligiga erishmasa, loyihadan ko'zlangan foydani olmasa, xorijiy investorning loyihaga bo'lgan qiziqishi susayadi. Bu boshqa investorlaming respublikamizda kichik va o'rta biznes sohasiga bo'lgan fikri, munosabatiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Mamlakat hududlarida telekommunikatsiya va aloqa tarmoqlari jahon standartlariga javob bera olmasligi, internet tezligining pastligi, reklama-axborot ta'minotidagi taqchillik mavjudligi ham xorijiy investorlar faoliyat yuritishiga muayyan to'siq bo'ladi. Mahsulot bozori, nufuzli raqobatchilarining narx va ishlab chiqarish siyosati, xom ashyo materiallariga bo'lgan imkoniyatlar, yangi ishlab chiqarishni tashkil etish natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan ekologik holatni baholash bo'yicha ma'lumotlaming yetishmasligi jiddiy muammo bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimiz hududlarida jozibador investitsion muhitni shakllantirishning quyidagi asosiy yo'nalishlarini ko'rsatish mumkin:

- Xorijiy investitsiyalarga, birinchi navbatda, zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish manbasi sifatida qaralishi, shu bilan birga ichki investitsiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- Investitsiya muhitini shakllantirishning asosiy yo'nalishi sifatida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, institutsional shart-sharoitlarni yaratish va unda dunyoning yetakchi davlatlari tajribasidan keng foydalanish;
- Investitsiya muhitini shakllantirishda xususiy sektor imkoniyatlaridan samarali foydalanish va uning kafolatlangan himoyasini ta'minlash;
- Investitsiya jarayonlari asosiy ishtirokchilari bo'lgan sub'yeqtalar uchun bir xil investitsiya muhitini shakllantirishi milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini oshirishni ham nazarda tutish.

Investitsiya muhitini yaxshilash borasida ko'plab islohotlar qilinganligiga qaramasdan hozirgi kunda hududlarga xorijiy investitsiyalarning kam jalg qilinayotganligidagi muammolar sifatida quydagilarni keltirishimiz mumkin:

- ❖ Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda davlat kompaniyalarini transformatsiya qilish yetaricha jadallashtirilmaganligi, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokining yuqoriligi;
- ❖ Tovar va moliya bozorlarida erkin raqobat muhitini shakllantirish hamda tadbirkorlarga xomashyo sotib olish uchun teng imkoniyatlar yaratishdagi to'siqlar;
- ❖ Raqobatdosh sanoat zanjirlarining yaratilmaganligi, makroiqtisodiy barqarorlikning ta'minlanmaganligi;
- ❖ Ba'zi hududlarda tovar va xizmatlar eksportining past darajadaligi, "yashil iqtisodiyot"ga o'tishning hududlar kesimidagi strategiyasining mavjud emasligi;
- ❖ Agrar sohaning yetarli darajada modernizatsiyalashmaganligi va boshqalar.

Investitsion muhitni yaxshilash, investorlar huquqini himoya qilish maqsadida davlatimiz rahbari tomonidan ham ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda va oshirilishi belgilangan. Investitsiya borasida qilinishi kerak bo'lgan va investitsiya jalg qilinishi muhim hisoblangan soha va yo'naliishlar "Yangi O'zbekiston Strategiyasi"da ham mavjudligi investitsiya nafaqat hozirgi kunda, balki kelajakda ham yurtimiz uchun muhim jihat bo'lishini anglatadi. Unga ko'ra iqtisodiy strategiyamiz kata hajmdagi investitsiyalarni jalg qilishga qaratilgan bo'lib, uning o'sish sur'atlari so'ngi 10 yilda yalpi ichki mahsulotning kamida 25 foizini tashkil etishiga erishish kerakligi ta'kidlangan. Bundan tashqari investorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatli himoya qilish, investitsiyalar bilan bog'liq jarayonlarni tartibga solish maqsadida yagona *Investitsiya kodeksini* ishlab chiqish va Biznes – ombdusman bilan yaqindan ishlaydigan *Investitsiyaviy ombdusman institutini* tashkil etish, xorijiy sarmoyadorlar uchun investitsiyalar paketining elektron bazasini yaratish borasida topshiriqlar berilishi investorlar uchun yaratilayotgan katta huquqiy imkoniyatlardir. Hududdarda investitsion muhitni yaxshilash maqsadidagi qilinishi kerak bo'lgan mazkur maqsadlar quydagi vazifalarni bajarish orqali shakllantiriladi:

- 1) Investitsiya muhitini takomillashtirishtarmoqlar va sohalar kesimida investitsiya va kreditlar hisobidan 2022-2026 yillarda amalga oshiriladigan yirik investitsiya loyihibarini aniqlashtirish, iqtisodiyotda davlat – xususiy sheriklikni kengaytirish masalalarini hal qilish;
- 2) Investitsiya faoliyatini amalga oshirishning erkinligi, investorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatli himoya qilish, investitsiyalar bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish maqsadida yagona *Investitsiya kodeksini* ishlab chiqishni amalga oshirish;
- 3) Xorijiy sarmoyadorlar uchun tayyor investitsion paketlarning elektron bazasini shakllantirish va taqdim etish tizimini yanada takomillashtirish [1].

Raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratishda, qishloq xo'jaligi va oziq – ovqat tarmog'ini modernizatsiyash, diversifikatsiyash va barqaror o'sishni qo'llab –

quvvatlash uchun, suv xo'jaligini rivojlantirish borasida, turizmni rivojlantirish bo'yicha strategik vazifalardan biri sifatida, mobil va yo'ldosh aloqa operatorlarining faolligini rag'batlantirishning qo'shimcha mexanizmlarini yaratish uchun investitsiyalarни keng jalb qilish kerakligining ta'kidlanishi barcha iqtisodiyot tarmoqlari investorlar uchun ochiq ekanligini anglatadi.

Shuni ta'kidlashimiz kerakki, Respublikamiz Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi ulushi kamroq qismni tashkil qilib, 2021 yilda 357 101, 8 mld so'mni tashkil qilgan va bu umumiy xarajatlar uchun ajratilgan mablag'ning 0,26% idan iborat bo'lган. Shu sababli ham mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun mahalliy va xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish muhim jihat hisoblanadi.

Investitsiyalar iqtisodiyotning drayveri ekanligini hisobga olgan holda

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi" [2] ning 26-maqsadini aynan mamlakat investitsion muhitini yanada yaxshilash va jozibadorligini oshirish etib belgilaganliklari kelgusi besh yil ichida barcha hududlar investitsion muhitini tubdan yaxshilash va mahalliy va xorijiy investorlarni to'g'ridan – to'g'ri jalb qilish maqsadida yangicha tizimli dasturlarni amalga oshirishni talab qiladi. Shu bilan birga mazkur besh yil davomida 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish belgilab berildi. Bu maqsad investitsiya faoliyatini yaxshilashni hududlar kesimida amalga oshirishni ko'zlagan bo'lib, ba'zi davlatlar bilan doimiy investitsion va tashqi savdo aloqalari mavjud viloyatlar bu jarayonni rivojlantirishi hamda hududlarda tadbirkorlarga ko'maklashish maqsadida turli markazlar faoliyatini shakllantirishi ta'kidlangan. Jumladan, Surxondaryo viloyatining Rossiya Federatsiyasi bilan biznes doirasini yanada rivojlantirish hamda viloyatda "Investorlarga ko'mak markazi" ni tashkil etish vazifa sifatida kiritildi.

Strategiyaning mazkur qismida Toshkent shahrida har yili "Toshkent xalqaro investitsiya forumi"ni o'tkazib borish belgilangan edi va buning ijrosi sifatida 2022 yil 24-26 mart kunlari Toshkent shahrida "Xalqaro investitsiya forumi" bo'lib o'tdi. Mazkur tadbirda 2mingdan ortiq ishtirokchilar- jahoning 56 mamlakatidan yirik investorlar va yuqori martabali mehmonlar qatnashgan bo'lib, 7,8 mld dollarlik aniq shartnomalar va investitsiyaviy bitimlar paketi imzolangan. Shu jarayonning o'zidayoq, qiymati 3,5 mld dollarlik loyihalarni amalga oshirish bo'yicha dastlabki kelishuvlarga erishilganligi investorlar uchun mamlakatimiz investitsion jozibadorligini ko'rsatib berilganligidan dalolat beradi. Bu Forum doirasida, nafaqat, kelishuvlarga erishish ko'zlangan edi, mamlakatimiz iqtisodiy tarmoqlarida qilinayotgan va kelgusida qilinishi ko'zda tutilgan islohotlar, imkoniyatlar hamda imtiyozlar bilan tanishtirish va kelajak uchun ham investorlarni shakllantirish edi va bunga erishildi. Bo'lib o'tgan bu forum mamlakatimiz investitsion jozibadorligini oshirish va bu orqali investorlarni jalb qilish borasidagi bir qadam bo'ldi.

Hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga katta hissa qo'shishga qodir yirik strategik investitsiya loyihalarini amalga oshirish imkoniyatlarini yaratish uchun qulay investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini shakllantirish orqali strategik masalalarni yuzaga chiqarish va hal etish asosiy iqtisodiy masalalardan hisoblanadi. Shu maqsadda har yili hududlarning investitsion muhiti tahlil qilib boriladi, bu ish har bir hududni sohani boshqarish bo'yicha mavjud tizim sifati hamda hududning investitsiya salohiyati darajasi (mehnat resurslari, moliyaviy resurslar, infratuzilma, yer va tabiiy resurslar va boshq.) nuqtayi nazaridan baholashga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston Strategiyasi.-T. : "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 135-136-betlar.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi 2022 yil 28-yanvardagi PF-60 sonli Farmoni. www.lex.uz.
- 3.Haydarov N. "Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari", iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissert. Avto. T., 2003 y., 45 b.
- 4.Karlibayeva R.H., Toshxo'jayev M.M., Xo'jamurodov A.J. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish: O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2012.- 127b.
- 5.G'ozibekov D.G. "Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari", iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T., 2002 y., 362 b.
- 6.Золотогоров В.Г. "Инвестиционное проектирование", Минск, 2008. С.472.
- 7.www.gazeta.uz. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining 2020- yil yakunlari bo'yicha hisoboti.
- 8.Statistik ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi.